

TARJIMONLIK SOHASIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

Abbosxonova Shaxrizoda Azimxon qizi

abbosxonovashahrizoda@gmail.com

Talaba, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashtirish jarayonida tarjimonlik faoliyatining ahamiyati va unga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani tahlil qilinadi. Turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi samarali muloqotning ta'minlanishi tarjimon zimmasiga nafaqat lingvistik, balki madaniy mas'uliyat ham yuklashini ko'rsatib beradi. Tadqiqotda tarjima jarayonida uchraydigan asosiy muammolar — madaniy komponentlarning to'g'ri yetkazilmasligi, terminologik nomuvofiqliklar, soha mutaxassisi tarjimonlar yetishmasligi hamda avtomatlashtirilgan tarjima texnologiyalarining cheklovlari tahlil etilgan. Shuningdek, shevalar va grammatik tuzilmalarning farqlari tarjima sifatiga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tarjimonlarning malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalardan ongli foydalanish va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: tarjima jarayoni, tarjimonlik faoliyati, madaniy komponentlar, terminologiya, avtomatlashtirilgan tarjima, tarjimashunoslik, madaniyatlararo muloqot, lingvistik tafovutlar, professional tarjimon, texnologik vositalar.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ В СФЕРЕ ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ

Аббосхонова Шахризода Азимхоновна

abbosxonovashahrizoda@gmail.com

Студентка, Узбекский государственный университет мировых языков,
Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В данной статье анализируется значение переводческой деятельности в условиях глобализации и растущая потребность в ней. Показано, что обеспечение эффективной коммуникации между различными

языками и культурами возлагает на переводчика не только лингвистическую, но и культурную ответственность. В исследовании рассмотрены основные проблемы, возникающие в процессе перевода: некорректная передача культурных компонентов, терминологические несоответствия, нехватка узкопрофильных переводчиков, а также ограничения автоматизированных технологий перевода. Кроме того, раскрывается влияние различий диалектов и грамматических структур на качество перевода. Обоснована необходимость повышения квалификации переводчиков, осознанного использования современных технологий и развития межкультурной компетенции для преодоления указанных проблем.

Ключевые слова: процесс перевода, переводческая деятельность, культурные компоненты, терминология, автоматизированный перевод, переводоведение, межкультурная коммуникация, лингвистические различия, профессиональный переводчик, технологические средства.

CURRENT ISSUES IN THE FIELD OF TRANSLATION STUDIES

Abbosxonova Shaxrizoda Azimxon qizi

abbosxonovashahrizoda@gmail.com

Student, Uzbekistan State World Language University, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the importance of translation activity in the context of globalization and the increasing demand for it. It shows that ensuring effective communication between different languages and cultures places on the translator not only linguistic, but also cultural responsibility. The study examines the main problems encountered in the translation process: inaccurate transmission of cultural components, terminological inconsistencies, the shortage of specialized translators, as well as the limitations of automated translation technologies. In addition, the influence of dialectal differences and grammatical structures on translation quality is highlighted. The article substantiates the necessity of improving

translators' qualifications, using modern technologies consciously, and developing intercultural competence to overcome these issues.

Keywords: *translation process, translation activity, cultural components, terminology, automated translation, translation studies, intercultural communication, linguistic differences, professional translator, technological tools.*

KIRISH

Globallashuv jarayonida tillar va madaniyatlar o'rtasidagi muloqotning samarali tashkil etilishi tarjimonlik faoliyatiga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi. Tarjimonlik bugungi kunda nafaqat so'zlarni bir tildan boshqasiga ko'chirish, balki ma'lumotni to'g'ri, ravon va madaniy jihatdan kelib chiqib yetkazish jarayoniga aylanib bormoqda. Rivojlangan sohada tarjimashunoslik turli madaniyatlarni bog'laydigan, mazmunli muloqotni yumshatadigan va o'zaro tushunishni rivojlantiradigan ko'prik sifatida qaraladi[1]. Ushbu holat tarjimonlarning zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda yashar ekanmiz, tarjimonlik faoliyati bir qancha muammolarga duch kelayotganligining guvohi bo'lamiz. Ushbu maqolada aynan shu muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Tarjima jarayonining eng qiyin jihatlaridan biri – madaniy komponentlarni to'g'ri va aniq yetkazib berishdir. Idiomalar, maqollar, diniy yoki tarixiy eslatmalar, milliy mentalitetga xos bo'lgan iboralar ko'p hollarda to'g'ridan-to'g'ri tarjimaga mos kelmaydi. Bu esa tarjimada ma'no yo'qolishi yoki noto'g'ri talqinlarga sabab bo'ladi. Tarjimon nafaqat tilni, balki manba va maqsad auditoriya madaniyatini ham chuqur bilishi zarur. Ko'plab sohalarda – tibbiyot, yuristlik, texnika, iqtisodiyot – mutaxassis tarjimonlarga ehtiyoj katta. Biroq shu yo'nalishlarda tajribali, terminologiyani mukammal biladigan tarjimonlar yetarli emas. Bu esa ilmiy – texnik matnlarning noto'g'ri tarjima qilinishiga, ayrim hollarda esa jiddiy amaliy xatoliklarga olib kelishi mumkin. Google translate, ChatGPT kabi vositalar tarjimaning ayrim turlarini

osonlashtiradigan bo'lsa-da, ular hali ham murakkab matnlarni to'liq, kontekstdan chetga chiqmasdan tarjima qila olmaydi. Ba'zan texnologiyalarga haddan tashqari ishonch tarjima sifati pasayishiga olib keladi. Tarjimonning vazifasi – texnologiyalardan yordamchi vosita sifatida foydalanish va yakuniy tarjima sifatini nazorat qilishdir.

Tarjimonlikda halollik, betaraflik va maxfiylik muhim talab hisoblanadi. Zamonaviy texnologik rivojlanish tarjimashunosliksohasiga yangi talablarni qo'yimoqda. Avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari tarjimonlar faoliyatini yengillashtirgan bo'lsa-da, inson omili ham muhim hisoblanadi, ayniqsa murakkab badiiy matnlar yoki madaniy mazmunni o'z ichiga olgan asarlar bilan ishlashda [2].

Bilamizki, har bir tilda so'zlashuvchilar tomonidan qo'llaniladigan madaniyat va shevalar ham turlicha bo'ladi. Ko'pincha so'zlashuv tili rasmiylashtirilgan holda tarjima qilinadi, bu esa tarjimonning vazifasini qiyinlashtiradi. Tarjima qilinishi kerak bo'lgan til so'zlashiladigan hudud qanchalik katta bo'lsa, shevalar shuncha ko'p bo'ladi va siz ana shuncha ko'p mos keladigan so'zlarni topashingiz kerak bo'ladi [3]. Shuningdek, turli madaniyatlar ham tarjimonga ba'zi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ba'zi mamlakatlarda biron his-tuyg'uni ifodalovchi imo-ishora yoki so'z birikmasi boshqa davlatlarda mavjud bo'lmasligini mumkin. Tarjimon ushbu holatlarda chalkashishi va xatolikka yo'l qo'yib, noto'g'ri tarjima chiqarishi mumkin.

Bundan tashqari, tillarning grammatik va sintaktik tuzillishi ham turlicha bo'lganligi tarjima jarayonini qiyinlashtiradi. Har bir til o'ziga xos fe'l zamonlari, kelishiklar, so'z tartibi, morfologik qo'shimchalarga va gap qurilishiga ega. Bu farqlar matnni boshqa bir tilga to'g'ri va aniq tarjima qilishda qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib atganda, tarjimonlik bugungi kunda eng zarur kasblardan biri bo'lib, u global hamkorlikni ta'minlaydi. Biroq bu sohada mavjud muammolar – madaniy tafovutlar, professional tarjimonlarning yetishmasligi, texnologiyalar ta'siri, termenalogik nomuvofiqliklar - tarjima sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu

muammolarni bartaraf uchun tarjimonlar muntazam ravishda malaka oshirib turishlari, terminologiyani chuqur o'rganishlari zarurdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xolmirzayeva S. Sh, Boymurodova F. Z. (2024). Global problems in translation theory. International scientific and practical conference. 503-504 betlar.
2. Ernazarov U. A. Tarjimashunoslikning dolzarb muammolari. Arab tili globallashuv davrida: innovatsion yondashuvlar va o'qitish metodikasi. 304-307 betlar.
3. Alimboyeva D. A. Tarjimadagi asoiy muammolar. Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference. 22-26 betlar.

